JIZZAX VILOYATI FORISH TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2024 - yil 6 - sentabr 176-3-53-Q/24 Forish tuman hokimligi

Forish tumani ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash va avtomobil yo‘llarini saqlash maqsadida, “Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan” yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 04-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli qarorining ijrosini ta’minlash bo‘yicha yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va avtomobil yo‘llarini saqlash borasida “Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan” yo‘l belgilari tashkil etish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Forish tuman ichki ishlar bo‘limining 2024-yil 14-martdagi 570-sonli va tuman “Yo‘llardan foydalanish korxonasi” DMninig 2024-yil 01-yanvardagi xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin va ma’qullansin.

2. Forish tumani “O‘zbekiston”, “Oybek”, “Osmonsoy”, “Sayyod” MFYlar hududidagi umumfoydalanishdagi yo‘llarga ilovaga muvofiq 3.4 “Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan” yo‘l belgilari o‘rnatishga ruxsat etilsin.

3. Tuman “Yo‘llardan foydalanish” korxonasi DM rahbari (F.Hakimov) “O‘zbekiston”, “Oybek”, “Osmonsoy”, “Sayyod” MFYlar hududdidagi umumfoydalanishdagi yo‘llarga ilovaga muvofiq 3.4 “Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan” yo‘l belgilari o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi

O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

5. Tuman IIB YHXB (T.Muqimov) mazkur yo‘l belgilari o‘rnatilishi hamda tuman hududida transport vositalari harakati tartibga solinishi nazorat qilib borilsin.

6. Mazkur qaror “Forish tongi” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Amirov va tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i Q.Nazarov zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **I.S.Matiyev**

Forish tuman hokimining
2024-yil 6-sentabrdagi
176-3-53-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Forish tumani “O‘zbekiston”, “Oybek”, “Osmonsoy”, “Sayyod” MFYlar hududidagi umumfoydalanishdagi yo‘llarga 3.4 “Yuk avtomobillarining harakat taqiqlangan” yo‘l belgilari o‘rnatish dislokatsiyasi

№	MFY nomi	Obyekt nomi	Tomoni	Joylashtirish Joylari	Yo‘l belgisi nomi
1	O‘zbekiston MFY	4R36 Avtomobil yo‘li	O‘ng tomon	PK 67+420	3.4. “Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan”
2	Oybek MFY	4R36 Avtomobil yo‘li	Chap tomon	PK 70+450	3.4. “Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan”
3	Osmonsoy MFY	4H 1249 Avtomobil yo‘li	O‘ng tomon	PK 0+00	3.4. “Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan”
4	Sayyod MFY	4H 1249 Avtomobil yo‘li	Chap tomon	PK 4+300	3.4. “Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan”